



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA
O‘YINLAR ORQALI SAVODXONLIKNI
OSHIRISH METODLARI**

Oltinova Bahora Zaynidinovna,
Samarqand davlat pedagogika instituti
4-bosqich talabasi



**METHODS OF IMPROVING LITERACY
THROUGH GAMES**

Oltinova Bahora Zaynidinovna,
4th-year student
Samarkand State Pedagogical Institute



**МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ
ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССАХ ПОСРЕДСТВОМ ИГР**

Олтинова Бахора Зайнидиновна,
студентка 4-курса Самаркандского
государственного педагогического института

E-mail:

oltinovabahora1622@gmail.com

Orcid:

<https://orcid.org/0009-0002-6746-251X>

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18531923>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘yin metodlaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi - o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish uyg‘otish, lug‘at boyligini oshirish hamda matn bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yinlarning o‘rnini ochib berishdir. Maqolada so‘z o‘yinlari, tovush va harf o‘yinlari, topishmoq va jumboqlar, shuningdek, matn asosidagi didaktik o‘yinlardan foydalanish metodlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish savodxonligi, o‘yin metodlari, didaktik o‘yinlar, lug‘at boyligi, ifodali o‘qish, mustaqil fikrlash, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish.

Abstract. This article highlights the effectiveness of using game-based methods in mother tongue and reading literacy classes for primary school pupils. The aim of the research is to reveal the role of games in fostering interest in reading, enriching vocabulary, and developing text comprehension skills. The article analyzes the use of word games, sound and letter games, riddles and puzzles, as well as didactic games based on texts.

Keywords: primary education, reading literacy, game methods, didactic games, vocabulary development, expressive reading, independent thinking, motivation to learn.

Аннотация. В данной статье освещается эффективность использования игровых методов на уроках родного языка и обучения чтению у учащихся начальных классов. Цель исследования — раскрыть роль игр в формировании интереса к чтению, расширению словарного запаса и развитии навыков работы с текстом у обучающихся. В статье проанализированы методы использования словесных игр, игр со звуками и буквами, загадок и головоломок, а также дидактических игр на основе текста.

Ключевые слова: начальное образование, читательская грамотность, игровые методы, дидактические игры, словарный запас, выразительное чтение, самостоятельное мышление, формирование интереса у учащихся.



KIRISH

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda ularda o'qishga bo'lgan qiziqish, savodxonlik, mustaqil fikrlash va nutqiy madaniyat shakllana boshlaydi. Ona tili va o'qish savodxonligi fani o'quvchilarni to'g'ri, ravon va ongli o'qishga, o'z fikrini erkin ifodalashga, matn bilan ishlash ko'nikmalariga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida o'yin faoliyati o'quvchilarni faollashtiruvchi, ularni dars jarayoniga jalb qiluvchi eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. O'yinlar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning muloqot madaniyatini, nutq boyligini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'yin metodlaridan foydalanish o'qituvchi uchun dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari bor. O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. J.Yo'ldoshev 2000-yillarda o'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi [1.09].

O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarining, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Maqolada bola psixikasining rivojlanishida o'yining hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir.

Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa



faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy qismlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida maxsus maqsad asosida tashkil etiladigan, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi o'yin faoliyatidir. Ular oddiy o'yinlardan farqli ravishda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda ona tili va o'qish savodxonligi faniga bo'lgan qiziqishni oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va bilimlarni mustahkamlashni osonlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Didaktik o'yinlarning ona tili-o'qish savodxonligi darsida o'ziga xos vazifalari bor bo'lib, ular quyidagilar:

1. Ta'limiy vazifa - o'quvchilarga yangi bilim berish, mavzuni tushunib olish va mustahkamlashga yordam berish.

Masalan: "So'z zanjiri" o'yini orqali yangi so'zlar yod olish.

2. Tarbiyaviy vazifa - o'quvchilarda intizom, muloqot madaniyati, jamoada ishlash, bir-biriga yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish.

Masalan: "Savol-javob estafetasi" o'yini jamoada ishlashni o'rgatadi.

3. Rivojlantiruvchi vazifa - o'quvchilarning nutq boyligini kengaytirish, tafakkurini, xotirasini, diqqatini va ijodkorligini rivojlantirish. Masalan: "Topishmoq top" o'yini fikrlash tezligini oshiradi.

4. Faollashtiruvchi vazifa - dars jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish, zerikishni oldini olish va qiziqish uyg'otish.

5. Amaliy vazifa - olingan bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatish, kundalik hayotiy vaziyatlarda to'g'ri foydalanish malakasini shakllantirish [2.54].

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida qo'llashlariga tavsiya tariqasida ba'zi didaktik o'yinlardan misollar keltiramiz:

1. "So'z zanjiri". O'quvchilar ketma-ket so'z aytadi, har bir keyingi so'z oldingi so'zning oxirgi harfi bilan boshlanishi kerak. Masalan: kitob → bola → arslon → non → navbat... "Kim ko'proq so'z topadi?" - Ma'lum bir harf beriladi, o'quvchilar shu harf bilan boshlanadigan yoki tugaydigan so'zlarni yozib chiqadi. "Ortib qolgan harfni top", o'qituvchi so'z aytadi, lekin ichidan bir harfni tushirib qoldiradi. O'quvchilar uni topib, to'g'ri so'z aytishlari kerak. Masalan: "_ol" → bol / mol / qol



2. Tovush va harf o‘yinlari. “Tovushni top”, o‘qituvchi matndan bir so‘z o‘qiydi, o‘quvchi so‘zdagi ma‘lum tovush (masalan, “a” tovushi) nechta borligini sanaydi. “Tez aytish”, qiziqarli tez aytishlar beriladi, o‘quvchilar tovushlarni aniq talaffuz qilishga mashq qilishadi. Masalan: “Qizil qiz qizil gullar qizg‘aydi”. “Harfdan so‘z yasash”, o‘qituvchi bir nechta harf beradi, o‘quvchilar shu harflardan iloji boricha ko‘p so‘z tuzishlari kerak.

3. Topishmoq va jumboqlar - “Topishmoq ayt – javob top”, o‘qituvchi topishmoq aytadi, o‘quvchilar javob topadi. Masalan: “Uzi yo‘q, izi bor.” (Qalam) “Jumboq so‘z”, so‘zdagi harflar aralashtirib yoziladi, o‘quvchilar uni to‘g‘ri tartibda yozishi kerak. Masalan: “Kitob” → “Tikob”. “Kim tez topadi?”, o‘qituvchi biror predmetni tasvirlab beradi, lekin nomini aytmaydi. O‘quvchilar uni topishlari kerak. Masalan: “U dumaloq, rang-barang bo‘ladi, bolalar u bilan o‘ynaydi.” (Shar)

4. Matn asosidagi didaktik o‘yinlar. “Matndan top”, berilgan matndan ma‘lum so‘z yoki so‘z birikmalarini topib belgilash. Masalan: Matndan barcha “q” harfi bilan boshlanadigan so‘zlarni toping. “Davomini o‘ylab top”, matn o‘qib beriladi, oxiri qoldirib ketiladi. O‘quvchilar davomiga taxminiy hikoya tuzadilar. “Matnga savol ber”, har bir o‘quvchi matn asosida savol tuzadi va sinfdoshlariga beradi. “Kim tez o‘qib beradi?”, o‘quvchilar qisqa matnni to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qishda bellashadilar.

Bularga qo‘shimcha tariqasida lug‘at boyligi, ifodali o‘qish, mustaqil fikrlash va o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish boshlang‘ich sinfda savodxonlikni oshirishning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun darsning qiziqarli bo‘lishi bilim olishning asosiy sharti. O‘yinlar orqali o‘quvchilar darsni majburiyat deb emas, balki zavq bag‘ishlaydigan faoliyat sifatida qabul qiladi. Natijada o‘qishga ijobiy munosabat shakllanadi va bilimlarni mustahkamlash jarayoni samaraliroq bo‘ladi. Lug‘at boyligi -boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nutqi va tafakkuri lug‘at boyligi bilan chambarchas bog‘liq. So‘z o‘yinlari, topishmoqlar va jumboqlar orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi. O‘quvchilar ko‘p so‘z bilgan sari fikrlarini ravon ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Ifodali o‘qish- ifodali o‘qish – matnni his etib, to‘g‘ri ohang va pauzalar bilan o‘qishdir. O‘yin metodlari, masalan “Kim ifodaliroq o‘qiydi?” bellashuvi orqali bolalar matnga emotsional munosabat bildirishni o‘rganadi. Bu esa nafaqat o‘qish savodxonligini, balki tinglovchi bilan muloqotni ham rivojlantiradi. Mustaqil fikrlash-didaktik o‘yinlar bolalarni tayyor javobga emas, balki izlanishga undaydi. “Davomini o‘ylab top”, “Matnga savol ber” kabi o‘yinlar o‘quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Bu esa kelajakda ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga zamin yaratadi. O‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta‘lim davrida o‘quvchilarning savodxonligini oshirish ularning



kelgusidagi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu jarayonda o'yin metodlari eng samarali usullardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. O'yin faoliyati o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini orttiradi, ularni faol va erkin fikrlashga, hamkorlikda ishlashga undaydi. Shuningdek, o'yinlar bolalarning psixologik xususiyatlariga mos bo'lgani sababli bilim olish jarayonini tabiiy, zavqli va samarali qiladi.

So'z o'yinlari, tovush va harf o'yinlari, topishmoq va jumboqlar, matn asosidagi didaktik o'yinlar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantiradi, matnni tushunish va qayta hikoya qilish malakasini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini asoslab bayon etish, ijodiy yondashuv va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi.

Didaktik o'yinlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. O'yinlar orqali bolalarda intizom, tartib, jamoada ishlash, do'stlik va hamkorlik ko'nikmalari hosil bo'ladi. Shu bois o'yin texnologiyalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik jihatdan qulay va samarali vosita hisoblanadi.

XULOSA

Umuman olganda, o'yin metodlaridan oqilona foydalanish boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanining samaradorligini oshiradi. U o'quvchilarni darsga jalb qilish, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish va mustahkamlash, shuningdek, ularda o'qishga mehr uyg'otishning ishonchli yo'llaridan biridir. Kelgusida o'yin metodlarini yangi interfaol texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish va o'qitish jarayoniga yanada kengroq tatbiq etish savodxonlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.G'. "Ta'lim yangilanish yo'lida" – T.: O'qituvchi. 2000.
2. G'ulomov A, Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni, -Toshkent: O'qituvchi, 1995. –21-b.
3. Abdullayeva Sh. Loyihalar usuli // Kasbiy fanlar metodikasi. – Toshkent, 2013. – № – B. 10.
4. Baynazarova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik) "Novda Edutainment" Toshkent-2023. – 85-b.
5. Mahmudov N. va boshq. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 138-b.